

TALABALARNING IJODIY GEOGRAFIK QOBILIYATINI
RIVOJLANTIRISHDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH

Gaypova R.T.,
Turdibekova Z.M.
Nukus davlat pedagogika
instituti, O'zbekiston

Аннотация: В статье рассматривается содержание формирования творческих географических способностей учащихся в высших учебных заведениях и использование проблемного образования в его формировании.

Ключевые слова: география, методика, метод, проблема, возможности, педагогическая технология, результативность.

Abstract: The article talks about the content of forming the creative geographical ability of students in higher educational institutions and the use of problem-based education in its formation.

Key words: geography, methodology, method, problem, ability, pedagogical technology, effectiveness.

Geografiya fani o'qituvchisining ijodiy etukligi talabalarni tarbiyalash sifati uchun o'z kasbi oldidagi pedagogik ma'suliyatni anglashi, ta'lim – tarbiya vazifalarini hal etishga samarali yondoshishi, o'z mahoratini doimo rivojlantirib borishi va talabalarda ijodiy qobiliyatni har tomonlama rivojlanishiga yordam berishini namoyon etadi.

Talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta'lim samaradorligini oshirishga imkon beradigan texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi bilan birgalikda, ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi, rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi, ijodiy faoliyatga yo'llovchi, kommunikativ, mantiqiy fikrlash, aqliy faoliyat usullarini shakllantirish, o'z faoliyatini tahlil qilish, mo'ljalni to'g'ri olishga o'rgatish, hamkorlikni vujudga keltirish kabi funksiyalarni bajaradi.

Ijodiy qobiliyat – bu bilim ko'nikma va malakalarni namoyon bo'lishi emas, balki ularni tez o'zlashtirilishi va uni amaliyotda samarali qo'llanilishidir. Ushbu tushunchada ijodiy qobiliyatlar bilim, ko'nikma va malakalarga tenglashtirilmay, ularga nisbatan insonning munosabati, bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish engilligi, tezligi va chuqurligi, hamda ularni ma'lum bir faoliyatini engil o'zlashtirishda va shu faoliyatning muvaffaqiyatli bajarishda namoyon bo'ladi.

Talabalarning ijodiy qobiliyati rivojlanishi turli omillarga bog'liq bo'ladi. Eng muhimi bu jarayon noodatiy vaziyatlarda o'z imkoniyatlarini to'g'ri yo'naltira olish bilan belgilanadi. Zamonaviy o'qituvchi bo'lib etishi uchun faqat nazariy bilim va amaliy ko'nikmaga ega bo'lishning o'zi etarli emas, balki mustaqil va ijodiy ishlash ham muhim ahamiyatga ega.

Oliy ta'lim muassasalarida Geografiya o'qitish metodikasi fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan uslubiy majmuadan foydalanilsa,

talabalarning fan hamda muammoli ta'lim texnologiyalari haqidagi bilimlari tezda shakllanadi, shuningdek ta'limni boshqaruv ham takomillashadi, talabalarning bilim, kónikma va malakalari oshadi.

Biz sizlarga 3-kursda óqitiladigan “Geografiya óqitish metodikasi” fanidan muammoli ta'lim va Keys-stadi metodlaridan foydalanib qúyidagilarni tavsiya etamiz:

Mavzu: Geografiya ta'limini tashkil qilish shakllari

Mashg'ulotda qo'llaniladigan innovatsion texnologiya : Keys-stadi

Mashg'ulot jihozi: kompyuter, slaydlar, tarqatma matnlar, markerlar, anketa so'rovnomalari, kuzatish, suhbat natijalari.

Tayanch o'quv material: O'quv topshirig'i:

1. Ushbu vaziyatni o'qib chiqing.
2. Vaziyatni tahlil qiling va unda ko'rsatilgan muammoga nisbatan o'z fikrlaringizni bildiring.
3. Muammoni keltirib chiqaruvchi sabablarni ko'rsating.
4. Uni bartaraf qilish bo'yicha o'z takliflaringizni bildiring

Vaziyat

Bahor kelib havo harorati o'zgardi, o'quvchilar ham bahor havosidanmi ancha tetiklashish o'rniga erinchoq, o'ychan bo'lib qolishdi. Kunlar ham uzayganidanmi ko'pchilik o'quvchilarning bo'sh vaqtlari ko'payib qoldi.

6-sinf geografiya darsidan ikkinchi ekskursiya vaqti keldi. (o'quv reja bo'yicha). Buni e'lon qilganingda hamma birdek quvonishdi. Ammo lekin Sinfingizdagi Akbar ismli o'quvchingizning ota-onasi bu ekskursiyaga ruxsat bermadi, bolasining behollagini aytib. Bundan xabar topgan boshqa yana bir-ikkita bolalarning ham ota-onalari ruxsat berishmadi. Bundan so'ng o'qituvchi ekskursiya tashkil qilishni keyinga surdi. Akbar va uning sinfdoshlarining fanga bo'lgan qiziqishi ancha pasaygandi, ular o'zlarini majburlasalarda ko'ngildagidek dars tayyorlashmayaptilar, o'zlarini behol, charchagan his qilishayapti. Fan o'qituvchilarining ham shashti past, maktab jamoasida tushkun bir kayfiyatda yurardilar. Maktab psixologining aytishicha sinf o'quvchilari aniq fanlar o'qib to'liqishgan bundan esa miya faoliyati charchagan. Psixolog o'quvchilar faoliyatni o'zgartirishni maslahat berdi. (Hayotiy voqea)

Talabalarga uslubiy ko'rsatmalar, ishni tashkil qilish bosqichlari va maslahat va tavsiyalar:

1. Keys bilan tanishish:
 - a) Keys mazmunini diqqat bilan o'qib chiqing.
 - b) Keysni kichik jamoangizda “sabab-oqibat” nuqtai-nazaridan tahlil qiling.
2. Berilgan vaziyat bilan tanishish:
 - d) Malumotlarni yana bir diqqat bilan o'qib chiqing.
 - e) Vaziyatni keltirib chiqaruvchi omillarni belgilab oling.
 - f) Vaziyatda muhim joylarni qalam bilan chizib, alohida ko'rsatib qo'ying.

«ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ОТРАСЛЕЙ НАРОДНОГО ХОЗЯЙСТВА В БАССЕЙНЕ АРАЛЬСКОГО МОРЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ КЛИМАТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ»

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

3. Muammoli vaziyatni tahlil qilish:

Muammoli vaziyatni o'rganish davomida quyidagi savollarga javob topishga harakat qiling.

1. Bahor fasli kirib kelganida insonlar organizmida qanday fiziologik o'zgarishlar yuz beradi?

2. Nima uchun sinf o'quvchilarning fanlarga nisbatan qiziqishini susaygan dep o'ylaysiz?

3. Ota-onalar nima sababdan ruxsat berishmadi.

4. Maktab psixologining tashxis natijalari haqida fikr bildiring?

6. Voqealarni keyingi rivojlanishi qanday bo'lishi mumkin ?

7. Jamoadoshlaringiz bilan sinfni holati o'zgartirish rejasini tuzib chiqing?

8. Maktab ekskursiyani uchastkasida o'rkazsa qanday bo'lardi?

Muammoli vaziyatni yechish usul va vositalarni tanlash hamda asoslash:

a) Vaziyat yechimini topish maqsadida "Muammoli vaziyat" jadvalini to'ldiring.

b) Muammoni yechish uchun barcha holatlarni o'rganing, muqobil variyatlarni tahlil qiling.

s) Keys bilan ishlash natijalarini taqdimot yoki yozma axborot shaklida tayyorlang.

Muammoli vaziyat jadvali

Vaziyat turlari	Vaziyatning kelib chiqish sabablari	Vaziyatni yechish yo'llari va sizning harakatlaringiz
Sinfdan tashqari mashg'ulotlar	Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning tashkil qilmaganligi	O'quvchilar bilan birgalikda dam olish kunlari, bayramlarni maroqli o'tkazish rejasini tuzish
O'quvchilarning tushkun kayfiyatining o'quv jarayoniga ta'siri	O'qituvchining ota-onalar bilan majlislar olib bormaganligi	Ota-onalar gaplashib ularni tinislantirish
O'quvchilarning psixologik holati	Charchash, toliqish, bir jarayondan zerikish holatlarining yuzaga kelishi	Aqli va jismoniy mehnatni teng olib borish
Turli madaniy-marifiy tadbirlarning kamligi	Maktab jamoasi tomonidan ko'ngil ochar tadbirlarning tashkil qilinmaganligi.	Turli-hil madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish
Maktab uchastkasi tashkil qilinmaganligi	maktab uchastkasi tashkil qilinmaganligi	Maktab yonida maktab bog'i, maktab uchastkasi tashkil qilish

Keys-2

Mavzu: Geografiya ta'limini tashkil qilish shakllari

Mashg'ulotda qo'llaniladigan innovatsion texnologiya : Keys-stadi

Mashg'ulot jihozi: kompyuter, slaydlar, tarqatma matnlar, markerlar, anketa so'rovnomalari, kuzatish, suhbat natijalari.

Tayanch o'quv material:

O'quv topshirig'i:

1. Ushbu vaziyatni o'qib chiqing.
2. Vaziyatni tahlil qiling va unda ko'rsatilgan muammoga nisbatan o'z fikrlaringizni bildiring.
3. Muammoni keltirib chiqaruvchi sabablarni ko'rsating.
4. Uni bartaraf qilish bo'yicha o'z takliflaringizni bildiring

Vaziyat

Siz institutni tamomlab, qishlog'ingiz yoki tumaningizga o'rta maktabga ishga o'tdingiz. Mazkur maktabda geografiya kabineti, maktab o'lkashunoslik muzeyi yoki geografiya fanidan ekskursiyalar tashkil qilingmaganligining guvohi bo'ldingiz. Maktab rahbariyatidan so'raganingizda bu maktabning matematika fanidan iqtidorli bolalar maktabi ekanligini, o'quvchilarining juda bilimli va tirishqoq ekanliklarini ayta turib yana shunday dedi:

-Bu kamchiliklar faqat rahbariyatga bog'liq emas, Sizdan oldingi geografiya fani o'qituvchisining kamchiligi hamdir. Bunday kamchilikni bartaraf etishda Sizdek yosh o'qituvchilardan tashabbus ko'rsatishlarini hohlardik.

Talabalarga uslubiy ko'rsatmalar, ishni tashkil qilish bosqichlari va maslahat va tavsiyalar:

1. Keys bilan tanishish:
 - a) Keys mazmunini diqqat bilan o'qib chiqing.
 - b) Keysni kichik jamoangizda "sabab-oqibat" nuqtai-nazaridan tahlil qiling.
2. Berilgan vaziyat bilan tanishish:
 - d) Malumotlarni yana bir diqqat bilan o'qib chiqing.
 - e) Vaziyatni keltirib chiqaruvchi omillarni belgilab oling.
 - f) Vaziyatda muhim joylarni qalam bilan chizib, alohida ko'rsatib qo'ying.
3. Muammoli vaziyatni tahlil qilish:

Muammoli vaziyatni o'rganish davomida quyidagi savollarga javob topishga harakat qiling.

1. Nima deb uylaysiz maktab rahbariyatining aytgan gaplari o'rinlimikan
2. Aytingchi hali maktab jamoasi bilan etarlicha tanish bo'lmagan, hatta dars o'tishda tajarbasi ham kam (pedagogik amaliyot vaqtidagi tajriba) bo'lgan o'qituvchi uchun bunday tashabbuskorlik ko'rsatish qiyinmi?
3. Geografiya xonasini tashkil qilishda siz qanday qiyinchiliklarga duch kelish mumkin?
4. Muammoni yashilab o'rganib chiqqandan so'ng ushbu vaziyat yuzasidan o'z fikrlaringizni himoya qiling.

Muammoli vaziyatni yechish usul va vositalarni tanlash hamda asoslash:

a) Vaziyat yechimini topish maqsadida “Muammoli vaziyat” jadvalini to‘ldiring.

b) Muammoni yechish uchun barcha holatlarni o‘rganing, muqobil variyatlarni tahlil qiling.

s) Keys bilan ishlash natijalarini taqdimot yoki yozma axborot shaklida tayyorlang.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, geografiya darslarida talabalarga ijodiy topshiriqlar berish orqaligina tabiat va jamiyat haqidagi bilim va tasavvurlari ortadi, talabalarning dunyoqarashi kengayadi, ularda mashg‘ulotlarga qiziqish, aqliy qobiliyati rivojlandi.

Chiqarilgan xulosalar asosida “Geografiya ta’limini tashkil etish shakllari” modulini o‘qitishda muammoli ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish yuzasidan quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- amaliyotida qo‘llanilayotgan ilg‘or tajribalar va muammoli ta’lim texnologiyalarini samarali tatbiq etish orqali bu borada pedagoglarning ish tajribalarini boyitish va ularda ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga nisbatan ijodiy, innovatsion yondashuvni qaror toptirish;

- talabalarning o‘quv-bilish faolligini oshirishga, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan holda ta’lim sifatini oshirish va samaradorligini ta’minlashga doir mahalliy tajribalarni to‘plash, ularni ommalashtirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonuni. Toshkent .: 2020
2. Ballieva R., Gaypova R., Esbergenova S. Mektep geografiya pániniń mashqalaları. Ilim hám jámiyet, №1.2020. 43-44b.
3. Gaypova R.T; Turdibekova Z.M. «Materikler hám okeanlar tábiyiy geografıyası» pánin oqıtıwda qollanılátuǵın interaktiv metodlar «Ilim hám jámiyet» 2024j. 60-62- bet.
4. Gaypova R.T., Turdibekova Z.M. «Materikler hám okeanlar tábiyiy geografıyası» pánin oqıtıwda qollanılátuǵın interaktiv metodlar «Ilim hám jámiyet», №1, 2024, 60-62b.
5. Gaypova R.T., Tıyraev B., Sharibaev A. Geografiya sabaqlarında mashqalalı oqıtıwdıń qollanıwı Ilim hám jámiyet, №1, 2024, 60-62b.
6. D.Rózieva, M.Usmonboeva, Z.Xoliqova. Interfaol metodlar: mohiyati va qóllanilishi / Metodik qóllanma. -T.: “TDPU”, 2013, -116 bet.
7. R.Ishmuhamedov, M.Yuldashev. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. - T.: “Nihol”, 2013, -279 bet.